

**MADANIY INTELLEKT VA RAQS SAN'ATI: SHAXSIY VA IJODIY
TAFAKKUR UYG'UNLIGINING OMILI SIFATIDA**

Qolqanatova Alfiya Nazarbaevna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Nukus filiali talabasi

Ilmiy rahbar: Yuldasheva Zuxra Saliyevna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus
filiali katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola madaniy intellekt va raqs san'ati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning shaxsiy va ijodiy tafakkur rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Madaniy intellekt shaxsning madaniy muhitni qabul qilish, tushunish va unga moslashish qobiliyati sifatida ko'rib, ijodiy jarayonlarda madaniy tajribani shakllantirishga yordam beradi. Raqs san'ati bo'lsa shaxsning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va tafakkurini ifodalovchi san'at vositasi bo'lib, madaniy intellektni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Kalit so'zlar: madaniy intellekt, raqs san'ati, ijodiy tafakkur, shaxsiy rivojlanish, fikrlash, ijodiy ifoda.

**КУЛЬТУРНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ИСКУССТВО ТАНЦА: КАК ФАКТОР
ГАРМОНИИ ЛИЧНОГО И ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ**

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь культурного интеллекта и искусства танца и их значение для развития личного и творческого мышления. Культурный интеллект рассматривается как способность личности воспринимать, понимать и адаптироваться к культурной среде, способствуя формированию культурного опыта в творческих процессах. Искусство танца, в свою очередь, является средством выражения внутреннего мира, эмоций и мышления личности и считается эффективным инструментом развития культурного интеллекта.

Ключевые слова: культурный интеллект, искусство танца, творческое мышление, личностное развитие, мышление, творческое самовыражение.

**CULTURAL INTELLIGENCE AND DANCE ART: AS A FACTOR OF
HARMONY BETWEEN PERSONAL AND CREATIVE THINKING**

Abstract. This article examines the interconnection between cultural intelligence and dance art and their significance in the development of personal and creative thinking. Cultural intelligence is viewed as an individual's ability to perceive, understand, and adapt to the cultural environment, aiding in the formation of cultural experience within creative processes. Dance art, in turn, serves as a means of expressing a person's inner world, emotions, and thought, and is considered an effective tool for developing cultural intelligence.

Keywords: cultural intelligence, dance art, creative thinking, personal development, cognition, creative expression.

Yoshlarning teran fikrlamaslik, virtual tarmoqlarga mukkasidan ketish xavfi bo'lgan joriy asrda madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar inson tafakkuri va ijodiy-estetik dunyoqarashini yanada murakkablashtirib, uning oldiga yangi xatarli jarayonlarni yuzlashtirib qo'ydi. Bunday vaziyatda madaniy intellekt (cultural intelligence) tushunchasi insonning turli madaniy kontekstlarda moslashuvchan, tolerant va ijodiy fikrlash qobiliyatini yanada mustahkamlash zarurligini kun tartibi masalasiga olib chiqdi. Fikrlashni kitob mutolaasi bilan taraqqiy ettirish mumkin, ammo hamma yoshlar birdek kitonxon emas. Shu nuqtai nazardan yoshlarni o'z iqtidori va qobliyatiga qarab san'at bilan shug'ullanishiga zamin yaratilsa, ularning madaniy intellekt darajasi ham ijodiy tafakkur orqali birmuncha yaxshilanadi.

Raqs san'ati nafis harakat, his qilinadigan ritm, qalbdan kechgan his-tuyg'u va ruxiyatda shakllangan ifoda uyg'unligidan iborat bo'lgan madaniy hodisadir. Raqs orqali inson ichki tuyg'ularni, madaniy identifikatsiyasini, ichki dunyosini va tafakkur elastikligini namoyon eta oladi. Shu bois, madaniy intellekt va raqs san'ati o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular shaxsning ijodiy fikrlashi va madaniy sezgirligini rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Madaniy intellektni raqs san'ati kontekstida qo'llash shaxsiy ijodiy rivojlanish, san'at faoliyatining bahosini oshirishi mumkin. Masalan, raqs ijrochisi yoki xoreograf madaniyatlararo qiyinchiliklarga to'g'ri moslasha olishi va turli madaniy kontekstlarda san'atini amalga oshira olishi madaniy intellekt komponentlari bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, ijodiy tafakkur va shaxsiy tafakkur (metakognitiv: "qaysi harakat madaniy mazmuni yetkazadi?", motivatsion: "men turli madaniyatdagi raqs

an'analarini o'rganishga tayyormanmi?", xulqiy: "men madaniyatga mos xulq bilan ifoda bera olamanmi?") kabi savollarmadaniy intellektning san'at amaliyotiga integratsiyasini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ham ta'kidlaydiki, raqs san'ati doirasida milliy yoki mahalliy raqs an'analarini saqlash va uni zamonaviy ijodga moslashuvchan qilish jarayonida madaniy intellekt muhim vosita bo'ladi. Masalan, "Global nuqtai nazardan madaniyatlararo va mahalliy madaniy raqs ta'limini tizimli taqqoslash (2010-2024)" nomli maqolada raqs ta'limida madaniyatlararo va mahalliy an'analarni o'zaro solishtirish orqali san'at-pedagogik strategiyalar tahlil qilinib, raqs ta'limining asosiy g'oyalari madaniyatlararo almashinuv, madaniy moslashuv, irqiy o'zlik, ijtimoiy funksiyalar va innovatsiya bilan an'anani birlashtirish jarayonida ko'p qirrali rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqotlar raqsni faqat san'at turi sifatida emas, balki madaniy uzatish, ijtimoiy me'yorlarni shakllantirish va shaxsiy hamda jamoaviy identifikatsiyani yaratish vositasi sifatida ko'rib chiqadi. Raqs ta'limi orqali turli madaniyatlar o'rtasidagi tushunish va integratsiya kuchaytiradi va ta'limda tenglik va inklyuzivlikni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda raqs merosining global darajada saqlanishi va tarqalishiga zamin yaratadi[1].

Raqs tushunchasi o'z chegaralarini shunchalik kengaytiradiki, oddiy harakatlar ham, masalan, xonani tozalash yoki joyida turish, raqsga aylanadi. Irina Sirotkina "Raqs: tushunish tajribasi" kitobini quyidagi ta'rif bilan boshlaydi: "Raqs – bu faqat san'at turi emas, balki insonning harakat madaniyati, uning tanaviyligi va affektivligining ajralmas qismidir." Har bir insonning raqs haqidagi tushunchasi mavjud va har bir kishining tushunchasi o'ziga xosdir. Bugungi kunda raqs keng va tor ma'nolarda ta'riflanadi. Keng ma'noda raqs – bu insonning ma'lum bir ritm ostida makonda harakatlanishi yoki siljishi. Bunday tushuncha insonning primitiv tana harakatlari, tilga ega bo'lmagan va sivilizatsiyadan oldingi davrdagi mavjudligi bilan bog'liq tushunchaga mos keladi. Shu sababli, raqsning ikkinchi tushunchasi ko'proq intellektual tarzda qabul qilinadi. Bu yerda raqs – odatiy hayotdan biror narsani o'zgartirish yoki san'at ramzlari bilan eksperiment qilish jarayonida yaratiladigan san'at asari sifatida tushuniladi. San'at asarlari, jumladan raqs, mohiyatiga ko'ra tushuntiriladigan ob'ektlar bo'lib, ular haqida san'at (estetik emas) idrok ob'ekti sifatida so'z yuritish mumkin.

Graham McFee raqsni san'at asari sifatida belgilovchi quyidagi xususiyatlarni ajratadi: Raqs san'at asari sifatida ma'lum tarixga ega ijrochilik san'ati. Raqs

abstraktsiya, butun bir tasavvur orqali nimanidir ramziy ifodalaydi. Xoreograf raqsni yaratishda unga ma'lum bir ma'no yuklaydi. Ijrochi xoreografik asarni sahnada ijro etish jarayonida talqin qiladi. Raqsni qayta tiklash va qayta ijro etish mumkin. Anna Bernsteinning "Raqs falsafasi" asarida ta'kidlanishicha, tomoshabin raqs spektaklini kuzatganda bir vaqtning o'zida uchta san'at asarini qabul qiladi: bu xoreografning ishlari, ijrochilarning asari va tomoshabinning o'zining spektaklni talqin qilishi[2].

Har bir xalqning raqsi uning milliy mentaliteti, urfu-odatlar va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu jihatdan, raqs san'ati madaniy intellektning amaliy ko'rinishi hisoblanadi. Masalan, Sharq raqslarida noziklik, ma'naviyat, ichki uyg'unlik ifodalanadi; Yevropa raqslarida esa kompozitsion struktura va estetik simmetriya ustunlikka ega. Raqqos ushbu farqlarni his qilgan holda, ularning falsafasini tanqidiy va ijodiy qabul qilib, madaniy intellekt faoliyatining yuksak darajasini ko'rsatishi kerak bo'ladi. Raqs orqali inson o'zini jismoniy harakatiga ko'rsatib qolmaydi, tomoshabin bilan birga, madaniy muloqotga ham kirishadi. Har bir harakat, imo, plastika va ritm orqali u madaniy ma'no yaratadi. Shu jarayon shaxsning madaniy sezgirligini oshirib, uning tafakkurini ijodiy o'zgarishlarga ochadi.

XX asrning oxirida rossiyalik pedagog va psixolog V. F. Bazarni shunday fikrni ilgari suradi: inson vaqt va makonda o'zini mo'ljalga olish qobiliyatiga tananing harakat-dinamik his-tuyg'usi rivojlanganligi sababli ega bo'ladi. Bu hisning sifati, darajasi, mukammalligi va ko'p qirraliligi, uning asosida dunyoni turlicha o'zlashtirish insonning dunyoqarashi, dunyoni anglash darajasi, ijodiy intellekti, o'rganish qobiliyati va psixosozimoiy salomatligi salohiyatini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, "raqs qilmaydigan inson" (bu yerda bu so'z keng ma'noda, "o'ynamaydigan inson" iborasiga o'xshash tarzda ishlatilgan) erkinlik salohiyatiga va dunyoqarashning erkin, moslashuvchan dinamikasiga ega emas (biroq bu yerda postmodernizmga xos axloq va etikani inkor etuvchi "o'yin" nazarda tutilmayapti). Aynan shunday xususiyatlar tafakkur paradigmasini o'zgartirish uchun zarurdir. Ehtimol, "yangi harakatni imkoniyatlar maydoni sifatida his etish" kutilmagan, shakllantirib bo'lmaydigan o'zgarishni yaratadi va yangi ma'nolar hamda anglash erkinligini ochib beradi.

Raqs – inson mavjudligining fenomeni, insoniyat madaniyatining eng muhim qirrasini, inson va jamiyat hayotining ajralmas qismi. Raqs jonlangan dinamik va plastik shakl, raqqos esa ilhom manbai, stixiya va energiya timsoli, raqs orqali insonni yer tortish kuchidan yuksaltiruvchi mavjudotdir. Raqs ruhiy, hissiy-ma'naviy tajribani ifoda etishning vositasi, usuli va imkoniyatidir; bu tajriba so'z bilan ifodalab bo'lmaydi

va aql bilan tushuntirib bo'lmaydi. Raqs, xuddi erkinlik va o'yin singari, inson mavjudligiga xosdir, u muqaddas (shu jumladan kosmik) hamda oddiy, kundalik hayotiy jihatlarni ham ochib beradi.

Tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonida raqs ulkan yo'lni bosib o'tgan bo'lib, har bir davrda insonning ruhiy va amaliy ehtiyojlarini o'ziga xos tarzda ifoda etgan. Har bir bosqich o'ziga xos xususiyat va ma'noga ega. Raqs fenomeni ruh erkinligi bilan bog'liq bo'lib, ichki erkinlik inson uchun ijodga "yo'l ochadi". Shunday ekan, madaniy intellekt va raqs san'ati shaxsga erkinlik, erkin va hur fikr yuritish imkonini beradi. Buning natijasida esa, shaxsiy va ijodiy tafakkur hamohang rivojlanadi[3].

Ijodiy tafakkur insonning yangicha fikrlash, original g'oyalar yaratish, mavjud stereotiplardan chiqib, yangi ma'no shakllarini izlash qobiliyati desak mubolag'a bo'lmaydi. Raqs jarayonida inson tanasi, hissiyoti va tafakkuri bir butun tizimda ishlaydi. Bu holat shaxsda sensor-motor tafakkurni, estetik idrokni va metaforik fikrlashni rivojlantiradi. Madaniy intellekt bilan uyg'unlashgan ijodiy tafakkur insonni har bir madaniyatni chuqur his etishga, ularning san'at tili orqali o'zini ifoda etishga undaydi. Shunday qilib, raqs ijodiy tafakkurni faollashtiruvchi kognitiv-emosional mexanizmga aylanadi. Raqs san'atida shaxsiy tafakkur va ijodiy tafakkur birgalikda ishlaganida, raqqos yoki havaskor ijodkor madaniy mazmunni chuqurroq anglab, uni yangi harakat, sahna ifodasi orqali tomoshabin bilan baham ko'rishi mumkin. Raqs o'qitish jarayonida madaniy intellekt elementlari madaniyatlararo savodxonlik, lokat xususiyatlar, moslashuvchanlik kabi dolzarb mavzular chuqurroq o'rganilishi lozim. Shu bilan birga, raqs ijodkorlari va xoreograflar uchun madaniyatlararo tajriba almashish, xalqaro uchrashuvlar o'tkazishni yanada takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Liu, W., Xue, H., & Wang, Z. Y. (2024). A systematic comparison of intercultural and indigenous cultural dance education from a global perspective (2010-2024). *Frontiers in psychology*, 15, 1493457. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2024.1493457>
2. Уймина, О. И. (2020). Искусство современного танца в культуре информационного общества: магистерская диссертация (Master's thesis, б. и.).
3. Тарасова О.И. (2017). Свобода и танец. Вестник Академии русского балета им. А. Я. Вагановой, (6 (53)), 111-118.Shermanov, E. (2024). Talabalarning

- madaniy daxldorlik fazilatini sun'iy intellekt vositasida o'qitish texnologiyalari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 1(8).
4. Юлдашева, З. (2023). ОСНОВНЫЕ ВЫРАЗИТЕЛЬНЫЕ СРЕДСТВА ТАНЦЕВАЛЬНОГО ИСКУССТВА. *Oriental Art and Culture*, 4(3), 822-827.
 5. Юлдашева, З. (2022). Развитие хореографии как самостоятельного вида искусства. *Science and Education*, 3(12), 916-922.
 6. Saidovich, J. S., Uralovich, S. E., Kurbanov, A., & Erkinovna, A. N. (2022). The role of cinema in the system of education.
 7. Shermanov, E. (2024). Madaniy intellektning ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlash jarayonidagi integratsion roli. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 1(8).
 8. Rustamov, V., & Umarov, X. (2023). Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va unda insonni qadrlash masalalari. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 496-502.
 9. Saparbaev, A., & Yuldasheva, Z. (2025). THE HARMONY OF MUSIC AND DANCE. *Академические исследования в современной науке*, 4(25), 160-162.
 10. Kalkanatov, A. (2023). THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2, 7-10.
 11. Salievna, Y. Z. (2025). RAQS SAN'ATI-MILLIY MEROSIMIZNING BEBAHO DURDONASI. *ACUMEN: International journal of multidisciplinary research*, 2(5), 178-183. Alfiya, Q. (2023). Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1, 16-20.
 12. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.
 13. Kalkanatov, A. (2023). PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2, 19-23.
 14. Yuldasheva, Z. (2023). MILLIY VA ZAMONAVIY MUSIQA SANATINING TURFA VA RANG-BARANG USLUBI. *Miasto Przyszłości*, 39, 256-259.
 15. QOLQANATOV, Asilbek. "MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN." *News of UzMU journal* 1.1 (2024): 1.

16. Kolkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH* 2 (2023): 67-69.
17. Nazarbai, Kolkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2 (2023): 65-70.